O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KRIMINOLOGIYA TADQIQOT INSTITUTI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT
MUSTAQILLIGINING 35 YILLIGI MUNOSABATI BILAN

YANGI O‘ZBEKISTONDA ICHKI ISHLAR ORGANLARINI ISLOH QILISH VA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINI TAKOMILLASHTIRISH: NATIJALAR VA USTUVOR VAZIFALAR

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI TO‘PLAMI

Toshkent – 2026

O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti kengashining yig‘ilishida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan.

Mas’ul muharrir

O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti boshlig‘i, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), **B.E. Berdialiyev.**

Taqrizchilar:

Y.Y. Ollamov – Yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

B.A. Yarov – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Nashrga tayyorlovchilar:

falsafa doktori (PhD) professor **R.O. Nigmatov,** tibbiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) **I.E. To‘rayev,** falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD, dotsent) **Sh.Sh. Xasanov,** ilmiy xodim-tadqiqotchi **S.R. Risqiboyeva,** ilmiy xodim-tadqiqotchi **D.A. Ubaydullayeva,** ilmiy xodim-tadqiqotchi **D.B. Mamarajabova,** ilmiy xodim-tadqiqotchi **U.U.Nig’matov.**

Yangi O‘zbekistonda ichki ishlar organlarini isloh qilish va huquqbuzarliklar profilaktikasini takomillashtirish: natijalar va ustuvor vazifalar: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami *(2026-yil 28-avgust)* – T.: O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti, 2026. – 373 b.

Mazkur to‘plamda Yangi O‘zbekistonda ichki ishlar organlarini isloh qilish, ularning faoliyatini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish hamda huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimini rivojlantirishning dolzarb masalalari yoritilgan. Unda ichki ishlar organlari faoliyatining samaradorligini oshirish, aholining huquq-tartibot organlariga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, profilaktika subyektlari faoliyatini takomillashtirish, jinoyatchilikka qarshi kurashishning zamonaviy usul va vositalarini joriy etish bilan bog‘liq ilmiy va amaliy masalalar tahlil qilingan. Shuningdek, amalga oshirilayotgan islohotlarning natijalari, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari, ilg‘or xorijiy tajribadan foydalanish imkoniyatlari hamda istiqboldagi ustuvor vazifalar yuzasidan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

To‘plam huquq-tartibot organlari xodimlari, oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari, olimlar, tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, talabalar va kursantlar, shuningdek, ichki ishlar organlari faoliyati va huquqbuzarliklar profilaktikasi masalalari bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar uchun mo‘ljallangan.

© O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti, 2026-y.

“XAVFSIZ MAHALLA” - XAVFSIZ JAMIYAT: ICHKI ISHLAR ORGANLARI FAOLIYATI QUYI BO‘G‘INIDAGI ISLOHOTLAR

Abdugapparov Alisher Azatbekovich

O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti ilmiy xodimi, podpolkovnik

Kutlimuratov Maxmudjon Sharipbayevich

O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti ilmiy xodimi, kapitan

Annotatsiya. Maqolada Kriminologiya tadqiqot instituti tomonidan Toshkent shahri, Toshkent va Samarqand viloyatlarida biriktirilgan mahallalarda amalga oshirilgan ilmiy-amaliy ishlar, jinoyat o‘choqlarini aniqlash, ijtimoiy profilaktika obyektlarini o‘rganish, “mahalla yettiligi” bilan hamkorlik, profilaktika inspektorlari faoliyatini takomillashtirish, huquqbuzarliklarning sabab va shart-sharoitlarini ilmiy asosda tahlil qilish hamda manzilli profilaktika mexanizmlari tahlil qilingan.

Tadqiqot natijalari mahallada xavfsiz muhitni shakllantirishda faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning kuch va vositalaridan foydalanish emas, balki kriminologik tahlil, ijtimoiy profilaktika, raqamli texnologiyalar, fuqarolik jamiyati institutlari va mahalla tizimi imkoniyatlarini integratsiyalash muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar. *Xavfsiz mahalla, jamoat xavfsizligi, jinoyatchilik profilaktikasi, mahalla yettiligi, ichki ishlar organlari, profilaktika inspektori, kriminologik tahlil, ijtimoiy profilaktika, manzilli profilaktika, jinoyat o‘chog‘i, xavfsiz muhit.*

Аннотация. В стате проанализирована научно-практическая деятелност, осущэствляемая Институтом криминологических исследований в закреплённых за ним махаллях города Ташкента, Ташкентской и Самаркандской областей, включая выявление очагов преступности, изучение объектов социалной профилактики, взаимодействие с «махаллинской семёркой», совершенствование деятелности инспекторов профилактики, научно обоснованный анализ причин и условий совершения правонарушений, а также механизмы адресной профилактики.

Результаты исследования показывают, что формирование безопасной среды в махалле требует не толко исползования сил и средств правоохранителных органов, но и интегратсии криминологического анализа, социалной профилактики, сифровых технологий, возможностей институтов гражданского

общэства и системы махалли.

Ключевые слова. *Безопасная махалля, общэственная безопасност, профилактика преступности, махаллинская семёрка, органы внутренних дел, инспектор профилактики, криминологический анализ, социалная профилактика, адресная профилактика, очаг преступности, безопасная среда.*

Abstract. The article analyzes the scientific and practical activities carried out by the Institute of Criminological Research in the mahallas assigned to it in the city of Tashkent, Tashkent and Samarkand regions, including the identification of crime hotspots, the study of social prevention targets, cooperation with the "Mahalla Seven," improvement of the activities of prevention inspectors, scientifically based analysis of the causes and conditions of offenses, as well as targeted prevention mechanisms.

The research findings demonstrate that creating a safe environment in mahallas requires not only the use of the capabilities and resources of law enforcement agencies, but also the integration of criminological analysis, social prevention, digital technologies, civil society institutions, and the potential of the mahalla system.

Keywords. *Safe mahalla, public security, crime prevention, Mahalla Seven, internal affairs bodies, prevention inspector, criminological analysis, social prevention, targeted prevention, crime hotspot, safe environment.*

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini tubdan takomillashtirish, huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasini kuchaytirish hamda aholi bilan ishlashning samarali mexanizmlarini joriy etish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bunda mahalla jamoat xavfsizligini ta’minlashning eng quyi, biroq eng muhim bo‘g‘ini sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Mahalla — fuqaroning kundalik hayoti, oilaviy munosabatlari, ijtimoiy muhiti, bandligi, ta’lim-tarbiyasi va huquqiy xulq-atvori shakllanadigan ijtimoiy makondir. Shu bois jinoyatchilikka qarshi kurashishning samaradorligi ko‘p jihatdan aynan mahalla darajasida xavf omillarini o‘z vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etishga bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-yanvardagi PQ–1-son qarorida mahallalarda jinoyatchilikning barvaqt oldini olish bo‘yicha yaxlit va manzilli ishlash tizimini joriy etishga alohida e’tibor qaratilgan. Qarorda kriminogen vaziyati og‘ir mahallalarni mas’ul rahbarlar va tegishli tashkilotlarga nomma-nom biriktirish mexanizmi nazarda tutilgan.[1] PQ–2-son qaror esa 2026-yilda mahallalarda jinoyatchilikning barvaqt profilaktikasi samaradorligini yanada oshirishga qaratilgan tashkiliy chora-tadbirlarni belgilab berdi.[2]

Rasmiy manbalarda qayd etilganidek, 2025-yilda mahallalarda xavfsiz muhitni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida jinoyatchilikni qariyb 1,5

baravarga kamaytirishga erishilgani 2026-yilda mazkur tizimni yanada takomillashtirish uchun asos bo‘lgan.[3]

Shu ma’noda, “Xavfsiz mahalla” konsepsiyasi oddiy profilaktik tadbirlar yig‘indisi emas, balki jinoyatchilikni keltirib chiqarayotgan sabab va shart-sharoitlarni mahalla kesimida aniqlash, ularni manzilli bartaraf etish va natijadorlikni doimiy baholashga asoslangan kompleks tizim sifatida qaralishi lozim.

1. Mahalla — jamoat xavfsizligining asosiy quyi bo‘g‘ini.

Jamoat xavfsizligini ta’minlashda ichki ishlar organlarining quyi bo‘g‘ini, avvalo, profilaktika inspektori faoliyati bilan bevosita bog‘liq. Chunki profilaktika inspektori mahalladagi kriminogen vaziyatni, ijtimoiy profilaktika obyektlarini, nizoli oilalarni, nazoratsiz qolgan yoshlarni, ishsiz fuqarolarni, huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslarni va boshqa xavf omillarini kundalik kuzatish imkoniyatiga ega.

O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunida huquqbuzarliklar profilaktikasining umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktika kabi shakllari belgilab berilgan.[4] Mazkur huquqiy mexanizmlarning mahallada samarali ishlashi esa turli idoralar o‘rtasidagi hamkorlikning qay darajada yo‘lga qo‘yilganiga bog‘liq.

Shu nuqtayi nazardan “mahalla yettiligi”ning faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Ichki ishlar organlari, mahalla, yoshlar, xotin-qizlar, ijtimoiy himoya, hokimlik va boshqa mas’ul tuzilmalarning imkoniyatlarini birlashtirish orqali jinoyatchilikka ta’sir etuvchi omillarni faqat huquqiy emas, balki ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy va psixologik jihatdan ham bartaraf etish imkoni paydo bo‘ladi.

Bunda asosiy e’tibor “jinoyat sodir bo‘lgandan keyin kimni jazolash kerak?” degan savoldan “jinoyat nima sababdan sodir bo‘lishi mumkin va uning oldini qanday olish mumkin?” degan yondashuvga o‘tishi bilan ifodalanadi.

2. 2026-yilgi islohotlarning yangi mazmuni: mas’ullikdan manzillilikka.

2026-yil 5-yanvarda qabul qilingan PQ–1-son qarorning muhim jihatlaridan biri mahallalarni mas’ul rahbarlar va muassasalarga nomma-nom biriktirish amaliyotini kuchaytirishdir.[1]

Mazkur yondashuvning afzalligi shundaki, jinoyatchilikning holati uchun umumiy mas’uliyat tushunchasi aniq hudud, aniq mahalla va aniq mas’ul shaxs bilan bog‘lanadi. Bu esa profilaktika ishlarida shaxsiy mas’uliyatni oshiradi.

Bunday tizimda mahallaning “qizil”, “sariq” yoki “yashil” toifaga kiritilishi yakuniy maqsad emas. Aksincha, ushbu tasnif profilaktika resurslarini qaysi hududga va qaysi muammoga birinchi navbatda yo‘naltirish lozimligini belgilab beruvchi boshqaruv vositasi bo‘lishi kerak.

Shu nuqtayi nazardan kriminogen vaziyati og‘ir mahallalarga huquq-tartibot idoralari ta’lim va ilmiy tashkilotlarining biriktirilishi muhim innovatsion mexanizm sifatida baholanadi. Ilmiy muassasaning hududga biriktirilishi amaliyotga tashqi

nazorat yoki tekshiruv sifatida emas, balki kriminologik tahlil, ilmiy tavsiya va amaliy yechimlarni joriy etish mexanizmi sifatida tashkil etilishi lozim.

3. Kriminologiya tadqiqot institutining mahallalar bilan ishlash tajribasi.

2026-yilda Kriminologiya tadqiqot institutiga Toshkent shahri, Samarqand va Toshkent viloyatlarida uch yildan buyon “qizil” toifada bo‘lib kelayotgan mahallalar biriktirildi.

Mazkur yo‘nalishda jami 40 ta mahallaga 39 nafar ilmiy-amaliy tajribaga ega mutaxassis mas’ul etib belgilandi. Jumladan, Toshkent shahridan 1 ta, Samarqand viloyatidan 26 ta, Toshkent viloyatidan 13 ta mahalla ilmiy-amaliy o‘rganishlarga jalb qilindi. Shuningdek, Toshkent shahri Yakkasaroy tumanidagi mahallalar, Chilonzor tumanidagi “Al-Xorazmiy”, Shayxontohur tumanidagi “Chaqar” va “Olmazor” mahallalarida ham ilmiy-amaliy ishlar tashkil etildi.

Mazkur tajribaning asosiy xususiyati — mahalladagi kriminogen vaziyatni faqat statistik ma’lumotlar asosida emas, balki hududga chiqish, aholi bilan muloqot qilish, “mahalla yettiligi” faoliyatini o‘rganish, jinoyat sodir bo‘layotgan nuqtalarni aniqlash va har bir jinoyatning sabab hamda shart-sharoitlarini tahlil qilish orqali o‘rganishdan iborat bo‘ldi.

O‘rganishlar natijasida biriktirilgan mahallalarning 17 tasida jinoyat sodir etilishiga yo‘l qo‘yilmagani qayd etildi. Bu 63 ta mahallaga nisbatan 26,9 foizni tashkil etadi.

Masalan, Samarqand shahrining “Rasadxona”, Pastdarg‘om tumanining “Qatorterak” va Samarqand tumanining “Yangiariq” mahallalarida kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan manzilli choralar natijasida jinoyatchilik ko‘rsatkichlarida ijobiy dinamika kuzatilgan.

Mazkur natija profilaktika ishlarida ilmiy tahlil va manzilli yondashuvning ahamiyatini ko‘rsatadi.

4. Jinoyat o‘choqlarini aniqlash - manzilli profilaktikaning asosiy sharti.

Mahallada jinoyatchilikning oldini olishda barcha hududlarga bir xil resurs ajratish har doim ham samarali emas. Kriminogen vaziyat hududning har bir ko‘chasi, xonadonlari, savdo nuqtalari, ko‘ngilochar obyektlari, ta’lim muassasalari va boshqa obyektlar kesimida farq qilishi mumkin.

Shu sababli Institut tomonidan “qadam-baqadam” hududni o‘rganish, jinoyat sodir bo‘layotgan joylarni aniqlash va asosiy resurslarni aynan shu nuqtalarga yo‘naltirishga alohida e’tibor qaratildi.

O‘rganilgan 63 ta mahallada jami 282 ta jinoyat o‘chog‘i aniqlangan. Shundan 26 ta Samarqand viloyati mahallasidan 128 ta, 13 ta Toshkent viloyati mahallasidan 71 ta va Toshkent shahridagi 24 ta mahalladan 83 ta jinoyat o‘chog‘i aniqlangan.

Ushbu yondashuv “butun mahalla bo‘yicha profilaktika”dan “kriminogen nuqta bo‘yicha profilaktika”ga o‘tishni anglatadi.

Masalan, agar muayyan ko‘cha yoki hududda kechki vaqtda bezorilik, tan jarohati yetkazish yoki talonchilik holatlari ko‘p sodir bo‘lsa, aynan shu vaqt va hududga patrul-post xizmati, profilaktika inspektori, texnik kuzatuv vositalari va boshqa resurslarni yo‘naltirish maqsadga muvofiq.

Bunday yondashuv ichki ishlar organlarining mavjud resurslaridan yanada samarali foydalanish imkonini beradi.

5. Ichki ishlar organlari quyi bo‘g‘ini faoliyatini takomillashtirish.

“Xavfsiz mahalla” tizimida profilaktika inspektori faoliyatini faqat huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar bilan ishlash doirasida tasavvur qilish yetarli emas.

Zamonaviy profilaktika inspektori:

– hududning kriminologik pasportini bilishi;

– jinoyat sodir bo‘ladigan vaqt va joylarni tahlil qilishi;

– ijtimoiy profilaktika obyektlarini aniqlashi;

– “mahalla yettiligi” bilan ma’lumot almashishi;

– aholi murojaatlarini tahlil qilishi;

– jinoyatchilikning sabab va shart-sharoitlarini aniqlashi;

– profilaktik choralarning natijadorligini baholashi;

– raqamli ma’lumotlar bilan ishlay olishi;

– jinoyat sodir bo‘lishidan oldin xavf signallariga munosabat bildirishi lozim.

Shu ma’noda profilaktika inspektori faoliyatining asosiy mezoni rasmiylashtirilgan profilaktik tadbirlar soni emas, balki hududda xavf omillarining kamayishi va jinoyat sodir etilishiga olib keluvchi shart-sharoitlarning bartaraf etilishi bo‘lishi kerak.

6. Yakkasaroy tumanidagi tajriba: profilaktika va sud mexanizmlarining integratsiyasi.

Ichki ishlar organlari quyi bo‘g‘ini faoliyatini takomillashtirishda Yakkasaroy tumanida sinov tariqasida tashkil etilgan tergov sudyalarining tungi navbatchiligi ham e’tiborga loyiq.

Mazkur amaliyot doirasida 18:00 dan 22:00 gacha bo‘lgan vaqtda ma’muriy ishlarni ko‘rib chiqishni bevosita tuman ichki ishlar organlari faoliyati bilan uyg‘unlashtirish yo‘lga qo‘yildi.

Berilgan ma’lumotlarga ko‘ra, JIB Yakkasaroy tuman sudi tomonidan ko‘rilgan 147 ta huquqbuzarlik ishining 67 tasi ichki ishlar organlari binosida ko‘rib chiqilgan.

Ushbu mexanizmning ahamiyatini huquqbuzarlik sodir etilganidan keyingi protsessual munosabatlarni tezlashtirish, huquqbuzarlikka o‘z vaqtida huquqiy baho berish va profilaktika choralarining uzluksizligini ta’minlash nuqtayi nazaridan baholash mumkin.

Biroq mazkur amaliyotni kengaytirishda protsessual kafolatlar, sud mustaqilligi

va qonunchilik talablariga qat'iy rioya qilish asosiy shart bo‘lib qolishi lozim.

7. “102” xizmati ma’lumotlaridan profilaktikada foydalanish.

Jinoyatchilik profilaktikasida aholi murojaatlari muhim kriminologik axborot manbasi hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan “102” xizmati Call-markaziga eng ko‘p murojaat kelib tushayotgan xonadonlarni aniqlash va ularni birinchi navbatda texnik qo‘riqlovga olish choralarining ko‘rilgani profilaktikaning yangi modeli sifatida baholanishi mumkin.

Bu yerda asosiy g‘oya - jinoyat sodir bo‘lgan xonadonga emas, balki jinoyat sodir bo‘lish xavfi yuqori bo‘lgan obyektga oldindan e’tibor qaratishdir.

Bunday yondashuv kriminologiyadagi xavfni boshqarish konsepsiyasi bilan hamohang bo‘lib, mavjud resurslarni yuqori xavfli obyektlarga yo‘naltirish imkonini beradi.

8. Mahallada ijtimoiy profilaktika obyektlarini aniqlash.

Jinoyatchilikning muhim qismi ijtimoiy muammolar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ishsizlik, oilaviy nizolar, ijtimoiy himoyaga muhtojlik, ta’limdan uzilish, yoshlarning nazoratsiz qolishi, giyohvandlik va alkogolizm, qarzdorlik, maishiy zo‘ravonlik kabi omillar muayyan holatlarda kriminogen xavfni kuchaytirishi mumkin.

Shu sababli “mahalla yettiligi”ning ijtimoiy profilaktika obyektlarini birgalikda aniqlashi alohida ahamiyat kasb etadi.

Institut ma’lumotlariga ko‘ra, joriy yilning yetti oyi davomida biriktirilgan 63 ta mahallada 6 417 ta ijtimoiy profilaktika obyekti bo‘yicha xulosalar berilgan. Shundan 5 223 tasi bo‘yicha, ya’ni 81,3 foiz holatda qo‘shma xulosalar rasmiylashtirilgan.

Bu ko‘rsatkich mahalladagi ijtimoiy muammolarni bir idoraning emas, balki bir nechta subyektning birgalikda baholash mexanizmi shakllanayotganini ko‘rsatadi.

Qo‘shma xulosalarning yana bir afzalligi — bir muammoga nisbatan turli idoralar imkoniyatlarini birlashtirishdir. Masalan, ishsiz fuqaro bo‘yicha bandlik organi, yosh bo‘yicha yoshlar organi, oilaviy nizo bo‘yicha xotin-qizlar tuzilmasi va huquqiy xavf bo‘yicha ichki ishlar organlari birgalikda ishlashi mumkin.

9. Kadrlar malakasini oshirish va metodik ta’minot.

“Xavfsiz mahalla” modeli samaradorligi bevosita mahallada ishlovchi kadrlarning kasbiy tayyorgarligiga bog‘liq.

Shu maqsadda “Ijtimoiy profilaktika obyektlarini aniqlash metodikasi”, “Mahallada xavfsiz muhitni yaratish: zamonaviy tahdidlarga qarshi kurashish” kabi mavzularda o‘quv-seminarlar tashkil etildi.

Bundan tashqari, “mahalla yettiligi” a’zolariga 31 turdagi 9 968 ta o‘quv-uslubiy qo‘llanma tarqatilgan.

Ular orasida “Mening inspektorim”, “Mahallada kriminogen vaziyatni

baholashning yangi tizimi", "Mahallani kameralashtirish", "Jinoyat muhokamasini o'tkazish", "Ayollar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarni barvaqt oldini olish metodikasi", "Giyohvandlik profilaktikasida professional tayyorgarlik va maxsus bilimlar" kabi metodik materiallarning mavjudligi profilaktika faoliyatini standartlashtirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Bunda kelgusida har bir metodik qo'llanma samaradorligini alohida baholash maqsadga muvofiq. Ya'ni qo'llanma tarqatilgani emas, balki undan foydalanish natijasida profilaktika ishlarining sifati qay darajada oshgani asosiy mezon bo'lishi lozim.

10. Mahallada kriminologik tahlilni raqamlashtirish.

Zamonaviy jinoyatchilik profilaktikasida statistik ma'lumotlarni yig'ishning o'zi yetarli emas. Ma'lumotlarni tahlil qilish, o'zaro bog'liqliklarni aniqlash va profilaktika choralarini prognoz qilish talab etiladi.

Shu sababli mahallaning kriminogen vaziyatini baholashda quyidagi ko'rsatkichlarni yagona tizimga birlashtirish maqsadga muvofiq:

1. jinoyatning turi;
2. jinoyat sodir etilgan joy;
3. jinoyat sodir etilgan vaqt;
4. jabrlanuvchining ijtimoiy xususiyatlari;
5. jinoyat sodir etgan shaxsning kriminologik tavsifi;
6. jinoyatning sabab va shart-sharoitlari;
7. ijtimoiy profilaktika obyektining mavjudligi;
8. avval amalga oshirilgan profilaktika choralari;
9. "102" xizmatiga kelib tushgan murojaatlar;
10. texnik qo'riqlov va videokuzatuv imkoniyatlari.

Bunday ma'lumotlar birlashtirilganda mahallaning "kriminologik raqamli portreti"ni shakllantirish mumkin.

11. Hostel va mehmonxonalarda xavfsizlikni ta'minlash.

Mahallada xavfsiz muhit yaratish faqat aholi yashaydigan xonadonlar bilan cheklanmasligi kerak.

Mehmonxona va xostellarda sodir etilgan jinoyatlarni ushbu obyektlar vakillari ishtirokida muhokama qilish amaliyotining yo'lga qo'yilishi profilaktikaning obyektga yo'naltirilgan modeliga misol bo'ladi.

Bunda har bir obyekt bo'yicha:

– videokuzatuv tizimi;
– kirish-chiqish nazorati;
– vaqtincha yashovchilar hisobi;
– xavfli holatlarga munosabat bildirish algoritmi;
– xodimlarning profilaktik tayyorgarligi;

– politsiya bilan tezkor aloqa mexanizmi kabi masalalar baholanishi zarur.

12. Jamoatchilikning huquqiy ongini oshirish.

Jinoyatchilik profilaktikasida aholining ogohligi ham muhim resurs hisoblanadi.

Institut tomonidan ishga kiritish, o‘qishga kiritish, avtomobil oldi-sotdisi bilan bog‘liq firibgarlik, kiberjinoyatchilik, telefon orqali firibgarlik, Telegram orqali sodir etiladigan firibgarlik va xorijga o‘qishga yuborish bilan bog‘liq aldovlar bo‘yicha 10 mingdan ortiq flayer va bukletlar tarqatilgan.

Bunday profilaktikaning afzalligi shundaki, u jinoyat sodir etilgandan keyingi emas, balki jinoyatning potensial qurboni bo‘lishi mumkin bo‘lgan shaxsni oldindan ogohlantirishga qaratilgan.

Ayniqsa, raqamli texnologiyalardan foydalanib sodir etilayotgan firibgarliklar ko‘payib borayotgan sharoitda aholiga sodda, tushunarli va amaliy tavsiyalar berish muhimdir.

13. Ilm-fan va amaliyot integratsiyasi.

“Xavfsiz mahalla” tizimining muhim xususiyati — ilm-fan va amaliyotning o‘zaro integratsiyalashuvidir.

Mahalladagi jinoyatchilikni o‘rganish faqat statistik hisobot tayyorlash bilan cheklanmasligi kerak. Ilmiy tadqiqot:

– muammoni aniqlashi;

– sabablarni tasniflashi;

– kriminogen xavf omillarini belgilashi;

– profilaktika modeli ishlab chiqishi;

– uni amaliyotga joriy etishi;

– natijani baholashi lozim.

Shu maqsadda Kriminologiya tadqiqot instituti tomonidan “Yakkasaroy tumani jinoyatchiligini tadqiq qilish”, “Chilonzor tumani jinoyatchiligini tadqiq qilish”, “Shayxontohur tumani jinoyatchiligini tadqiq qilish” va “Toshkent shahar jinoyatchiligini tadqiq qilish” kabi ilmiy-amaliy tadqiqotlar yo‘lga qo‘yilgani muhim ahamiyatga ega.

Besh yillik jinoyatchilik dinamikasini sabab va omillar kesimida o‘rganish orqali jinoyatchilikka ta’sir etuvchi barqaror omillarni aniqlash va profilaktika choralarini uzoq muddatli rejalashtirish imkoni paydo bo‘ladi.

14. “Xavfsiz mahalla” modelini takomillashtirish bo‘yicha takliflar.

O‘rganishlar va mavjud tajribadan kelib chiqib, mahalla darajasida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish uchun quyidagi choralarni taklif etish mumkin.

Birinchidan, har bir mahalla bo‘yicha “kriminologik xavf xaritasi”ni shakllantirish va uni oylik asosda yangilab borish zarur.

Ikkinchidan, profilaktika inspektori faoliyatini baholashda o‘tkazilgan tadbirlar

soni emas, balki jinoyatchilik dinamikasi, profilaktika obyektlarining kamayishi va xavf omillarining bartaraf etilganlik darajasini asosiy mezon sifatida belgilash maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, “102” xizmati, profilaktika inspektori, mahalla yettiligi va boshqa idoralarning axborotlarini integratsiyalashgan yagona kriminologik tahlil platformasiga birlashtirish zarur.

To‘rtinchidan, “qizil” toifadan “sariq” va “yashil” toifaga o‘tish mexanizmi bilan bir qatorda, “yashil” toifaga kirgan mahallalarda qayta kriminogenlashuvning oldini olish tizimini ham joriy etish kerak.

Beshinchidan, mahallada aniqlangan har bir jinoyat o‘chog‘i bo‘yicha alohida profilaktika pasportini shakllantirish maqsadga muvofiq.

Oltinchidan, ilmiy muassasalar tomonidan ishlab chiqilgan metodikalarni pilot mahallalarda sinab ko‘rish va natijadorligi isbotlangan modellarni boshqa hududlarga bosqichma-bosqich joriy etish lozim.

Yettinchidan, profilaktika inspektorlari va “mahalla yettiligi” uchun kriminologiya, konfliktologiya, mediatorlik, psixologik profilaktika, kiberjinoyatchilik va viktimologiya bo‘yicha doimiy malaka oshirish tizimini kuchaytirish zarur.

Sakkizinchidan, jinoyatchilik profilaktikasiga fuqarolarni jalb etishning zamonaviy usullarini, xususan, elektron murojaatlar, anonim xabar berish kanallari va mahalla xavfsizligi bo‘yicha raqamli platformalarni rivojlantirish maqsadga muvofiq.

To‘qqizinchidan, har bir mahalla bo‘yicha ishlab chiqilgan “yo‘l xaritasi”ning ijrosini har oy yakunida emas, balki natijaga yo‘naltirilgan indikatorlar asosida baholash kerak.

O‘ninchidan, ilmiy tadqiqot natijalari asosida samaradorligi isbotlangan “mahalla profilaktika modellari banki”ni yaratish zarur.

XULOSA

O‘zbekistonda jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimining quyi bo‘g‘inida amalga oshirilayotgan islohotlar mahallaning profilaktika tizimidagi o‘rnini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqmoqda.

2026-yil 5-yanvardagi PQ–1 va PQ–2-son qarorlari asosida mahallalarda xavfsiz muhit yaratish, jinoyatchilikning barvaqt profilaktikasini kuchaytirish, mas’ul rahbarlarni hududlarga nomma-nom biriktirish, aholi bilan manzilli ishlash va ilmiy yondashuvni amaliyotga tatbiq etish uchun muhim tashkiliy-huquqiy asos yaratildi.[1; 2]

Kriminologiya tadqiqot institutining biriktirilgan mahallalardagi faoliyati shuni ko‘rsatmoqdaki, jinoyatchilik profilaktikasida ilm-fan va amaliyotning integratsiyasi aniq amaliy natija berishi mumkin.

63 ta mahallada 282 ta jinoyat o‘chog‘ining aniqlangani, 6 417 ta ijtimoiy

profilaktika obyekti bo‘yicha xulosalar berilgani, ularning 81,3 foizi bo‘yicha qo‘shma xulosalar shakllantirilgani hamda bir qator mahallalarda jinoyatchilikning kamayishi ushbu yondashuvning amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi.

Eng muhimi, profilaktika faoliyatining mazmuni “sodir etilgan jinoyatga munosabat bildirish”dan “jinoyat sodir etilishiga olib keluvchi sabab va shart-sharoitlarni oldindan aniqlash va bartaraf etish”ga qarab o‘zgarmoqda.

Shu bois “Xavfsiz mahalla” konsepsiyasini ichki ishlar organlari, mahalla, prokuratura, sud, ta’lim, ijtimoiy himoya, yoshlar va xotin-qizlar tuzilmalari hamda ilmiy muassasalarning yagona profilaktik ekotizimi sifatida rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Mahallada xavfsizlik ta’minlansa, oilada osoyishtalik, ko‘chada tartib, jamiyatda barqarorlik qaror topadi. Shu ma’noda “Xavfsiz mahalla” - faqat jinoyatchilikni kamaytirishga qaratilgan dastur emas, balki **xavfsiz jamiyatni shakllantirishning institutsional asosidir**.

Demak, zamonaviy sharoitda jinoyatchilikka qarshi kurashishning eng samarali formulasi bu **“ilm + tahlil + manzilli profilaktika + hamkorlik + raqamli texnologiya + jamoatchilik”** tamoyillarining yagona tizimda uyg‘unlashuvidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonuni. https://www.lex.uz/ru/docs/-2387357.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi O‘RQ–407-son Qonuni, 2016-yil 16-sentyabr.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF–27-son “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi PQ–1-son “2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-yanvardagi PQ–1-son “Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo‘nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-yanvardagi PQ–2-son “2026-yilda respublika mahallalarida jinoyatchilikning barvaqt profilaktikasi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 1-dekabrdagi 754-son qarori.
9. Antonyan Yu.M. Kriminologiya. – M.: Norma, 2014.
10. Dolgova A.I. Kriminologiya. – M.: Norma, 2016.

11. Kriminologiya: darslik / umumiy tahrir ostida. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2020.

12. Ismailov I., Ziyodullayev M. Huquqbuzarliklar profilaktikasi: nazariya va amaliyot. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015.

13. O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot institutining 2026-yilda mahallalarda o‘tkazilgan ilmiy-amaliy o‘rganishlar bo‘yicha hisobot va tahliliy materiallari.

14. “Xavfsiz mahalla va jinoyatchilik profilaktikasi masalalari muhokama qilindi” // O‘zbekiston Milliy axborot agentligi. – 2026-yil 21-may.

15. Respublika idoralararo muvofiqlashtirish shtabi materiallari: mahallalarda xavfsiz muhitni ta’minlash va jinoyatchilikning barvaqt profilaktikasi bo‘yicha o‘rganish natijalari. – 2026.

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI MAHALLALARIDA JINOYATCHILIKNING HUDUDIY XUSUSIYATLARI VA ULARNING PROFILAKTIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Kutlimuratov Maxmudjon Sharipbayevich

O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti ilmiy xodim-tadqiqotchisi, kapitan

Annotatsiya. Mazkur maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasi mahallalarida jinoyatchilikning hududiy xususiyatlari tahlil qilinib, ularning oldini olishning samarali mexanizmlari yoritilgan. Jinoyatchilikka ta’sir etuvchi kriminogen omillar aniqlanib, mahallalar kesimida manzilli profilaktika choralarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar. *mahalla, jinoyatchilik, jinoyatlar profilaktikasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, hududiy xususiyatlar, kriminogen omillar, manzilli profilaktika, profilaktika mexanizmi, kriminogen xavf, jamoat xavfsizligi.*

Аннотация. В статье анализируются территориальные особенности преступности в махаллях Республики Каракалпакстан и рассматриваются эффективные механизмы её предупреждения. Выявлены криминогенные факторы, влияющие на преступность, и разработаны научно-практические предложения по совершенствованию адресных профилактических мер с учётом особенностей отдельных махаллей.

Ключевые слова. *Махалля, преступность, профилактика преступлений, Республика Каракалпакстан, территориальные особенности, криминогенные факторы, адресная профилактика, механизм профилактики, криминогенный риск, общественная безопасность.*

Abstract. This article analyzes the territorial characteristics of crime in mahallas of the Republic of Karakalpakstan and examines effective mechanisms for its prevention. The criminogenic factors influencing crime are identified, and scientific and practical recommendations are developed to improve targeted preventive measures, taking into account the specific characteristics of individual mahallas.

Keywords. *Mahalla, crime, crime prevention, Republic of Karakalpakstan, territorial characteristics, criminogenic factors, targeted prevention, prevention mechanism, criminogenic risk, public safety.*

Bugungi kunda jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni ta’minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, jinoyatchilikning sabab va shart-sharoitlarini barvaqt aniqlash hamda ularni bartaraf etish davlatning huquqiy siyosatidagi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda

jinoyatchilikka qarshi kurashish faqat sodir etilgan jinoyatlarni aniqlash va aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish bilan cheklanib qolmasdan, jinoyat sodir etilishiga imkon beruvchi ijtimoiy, iqtisodiy, maishiy, hududiy va boshqa kriminogen omillarni oldindan aniqlash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan kompleks profilaktik yondashuvni talab etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimining huquqiy asoslari shakllangan bo‘lib, uning asosiy maqsadi huquqbuzarliklarning sodir etilishiga olib keluvchi sabab va shart-sharoitlarni aniqlash, ularni bartaraf etish, fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, shuningdek, huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslarga nisbatan profilaktik ta’sir choralarini qo‘llashdan iborat. O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi O‘RQ-371-son “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunida huquqbuzarliklar profilaktikasining umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktika kabi asosiy turlari hamda uni amalga oshiruvchi subyektlarning vakolatlari belgilangan[1]. Mazkur huquqiy asos jinoyatchilikning oldini olishda profilaktik yondashuvning ustuvorligini belgilab, jinoyat sodir etilgandan keyingi ta’sir choralaridan tashqari, uning sabab va shart-sharoitlarini barvaqt bartaraf etishga yo‘naltirilgan tizimni shakllantirish imkonini berdi.

Jinoyatchilik profilaktikasi tizimida mahalla institutining ahamiyati alohida o‘rin tutadi. Chunki mahalla aholi bilan bevosita muloqot amalga oshiriladigan, shaxsning ijtimoiy muhiti, oilaviy-maishiy munosabatlari, ta’lim va mehnat faoliyati, bo‘sh vaqtini o‘tkazishi hamda boshqa ijtimoiy munosabatlari shakllanadigan eng muhim hududiy muhit hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, jinoyatchilikning sabab va shart-sharoitlarini aniqlashda hamda ularga nisbatan profilaktik ta’sir choralarini qo‘llashda mahalla darajasidagi ma’lumotlar muhim kriminologik ahamiyat kasb etadi.

Mahalla hududida jinoyatchilikning shakllanishi va namoyon bo‘lishi bir qator hududiy xususiyatlarga bog‘liq. Xususan, aholi zichligi, demografik tarkib, ishsizlik darajasi, aholining ijtimoiy-iqtisodiy holati, oilaviy-maishiy munosabatlar, jamoat joylarining holati, transport infratuzilmasi, savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlarining joylashuvi, ko‘cha va hududlarning yoritilganligi, videokuzatuv vositalari bilan ta’minlanganlik, kriminogen nuqtalarning mavjudligi, muqaddam sudlangan shaxslarning yashashi, yoshlar o‘rtasidagi ijtimoiy muammolar kabi omillar muayyan hududdagi kriminogen vaziyatga turlicha ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shu bois jinoyatchilik profilaktikasini faqat respublika, viloyat yoki tuman kesimidagi umumiy statistik ko‘rsatkichlar asosida tashkil etish har doim ham yetarli samara bermaydi. Chunki bir tuman yoki shahar hududida jinoyatchilik darajasi nisbatan past bo‘lishi mumkin, ammo uning tarkibidagi ayrim mahallalarda jinoyatlarning yuqori konsentratsiyasi kuzatilishi ehtimoldan xoli emas. Aksincha, umumiy jinoyatchilik darajasi yuqori bo‘lgan hudud tarkibida kriminogen vaziyati

barqaror mahallalar ham mavjud bo‘lishi mumkin. Demak, jinoyatchilikni profilaktika qilishda **hududiy differensiatsiya va manzilli yondashuv** muhim ahamiyatga ega.

Mazkur yondashuvning mohiyati har bir mahallada jinoyatchilikning holati, dinamikasi, tarkibi, sodir etilish xususiyatlari va ularga ta’sir qiluvchi kriminogen omillarni alohida o‘rganishdan iborat. Bunday yondashuv profilaktika resurslarini umumiy tarzda taqsimlash o‘rniga, kriminogen xavf darajasi yuqori bo‘lgan hududlar, obyektlar va shaxslarga maqsadli yo‘naltirish imkonini beradi.

O‘zbekistonda mahalla darajasida xavfsiz muhitni shakllantirishga qaratilgan davlat siyosati so‘nggi yillarda yanada kuchaytirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi PQ-1-son qarorida 2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilangan[2]. Ushbu yondashuvda mahalladagi kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish, profilaktika subyektlarining hamkorligini kuchaytirish va huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olishga alohida e’tibor qaratilgan.

Shuningdek, jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarda mahalladagi jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning asl omillarini ilmiy yondashuv asosida o‘rganish, olingan ilmiy xulosa va tavsiyalarni amaliyotga joriy etish hamda ularning natijadorligini baholash vazifalari belgilab berilgan[3]. Bu esa mahalla hududida jinoyatchilikni o‘rganishda faqat statistik ma’lumotlarni qayd etish bilan cheklanmasdan, jinoyatchilikning hududiy xususiyatlarini kriminologik jihatdan tahlil qilish va shu asosda amaliy profilaktika mexanizmlarini ishlab chiqish zaruratini ko‘rsatadi.

Ayniqsa, mahallalarda ijtimoiy profilaktika obyektlarini barvaqt aniqlash, ular bilan uzluksiz va tizimli ishlash mexanizmlarini shakllantirish, jinoyat sodir etishga qulay bo‘lgan ovloq va chekka joylarni xavfsiz hududlarga aylantirish, “mahalla yettiligi” faoliyatini raqamlashtirish hamda yagona boshqaruv va nazorat mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish kabi vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalar jinoyatchilik profilaktikasida hududiy ma’lumotlardan foydalanish, kriminogen omillarni aniqlash va profilaktik ta’sirni mahallaning o‘ziga xos xususiyatlariga moslashtirishning ahamiyatini yanada oshiradi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida mazkur masala alohida ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Chunki hududning geografik joylashuvi, aholi punktlarining o‘ziga xosligi, shahar va qishloq hududlarining nisbati, aholining ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari, infratuzilma va xizmat ko‘rsatish obyektlarining hududiy taqsimoti, ayrim hududlarning chekka joylashganligi kabi omillar jinoyatchilikning shakllanishiga turlicha ta’sir qilishi mumkin. Shu sababli Qoraqalpog‘iston Respublikasi mahallalarida jinoyatchilikni hududiy jihatdan o‘rganish va profilaktika

mexanizmlarini shu xususiyatlar asosida takomillashtirish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Rasmiy statistik ma'lumotlar Qoraqalpog'iston Respublikasida jinoyatchilik ko'rsatkichlarida 2021-2025 yillar davomida sezilarli o'zgarishlar bo'lganini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining ochiq ma'lumotlar bazasiga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasida ro'yxatga olingan jinoyatlar soni 2021-yilda 3 306 tani, 2022-yilda 3 367 tani, 2023-yilda 3 554 tani, 2024-yilda 4 673 tani va 2025-yilda 5 117 tani tashkil etgan[4].

Mazkur ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, 2021-yildan 2025-yilgacha Qoraqalpog'iston Respublikasida ro'yxatga olingan jinoyatlar soni 1 811 taga, ya'ni taxminan 54,8 foizga oshgan. Bunda 2021-2023 yillarda nisbatan barqaror o'sish kuzatilgan bo'lsa, 2024-yilda jinoyatlar soni 2023-yilga nisbatan 1 119 taga, 2025-yilda esa 2024-yilga nisbatan yana 444 taga ko'paygan. Ushbu dinamika jinoyatchilik holatini chuqur kriminologik tahlil qilish, uning hududiy taqsimoti va sabablarini aniqlash zaruratini yuzaga keltiradi[5].

Shu bilan birga, jinoyatchilikning umumiy sonining o'sishini avtomatik ravishda profilaktika tizimining samarasizligi sifatida baholash ilmiy jihatdan to'g'ri bo'lmaydi. Bunda jinoyatlarni qayd etish darajasi, jinoyatchilikni aniqlash amaliyotidagi o'zgarishlar, jinoyat tarkibining transformatsiyasi, aholi soni va demografik o'zgarishlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning aniqlash faoliyati va boshqa omillar ham hisobga olinishi lozim. Shuning uchun mazkur statistik dinamika jinoyatchilikni faqat son jihatidan emas, balki **tarkibiy va hududiy xususiyatlar** nuqtai nazaridan o'rganish zaruratini ko'rsatuvchi empirik asos sifatida qaralishi lozim.

Qoraqalpog'iston Respublikasida jinoyatchilikning ayrim turlari bo'yicha ham sezilarli dinamik o'zgarishlar kuzatilgan. Masalan, rasmiy statistikaga ko'ra, o'g'rilik jinoyatlari soni 2021-yilda 411 tani, 2022-yilda 396 tani, 2023-yilda 394 tani, 2024-yilda 1 349 tani va 2025-yilda 1 832 tani tashkil etgan[5]. Demak, 2021-2025-yillarda o'g'rilik jinoyatlari soni 1 421 taga oshgan.

O'g'rilik jinoyatlari dinamikasidagi bunday keskin o'zgarish jinoyatchilik profilaktikasida jinoyat turlarining hududiy konsentratsiyasini aniqlash zaruratini ko'rsatadi. Xususan, o'g'riliklar qaysi mahallalarda, qanday obyektlarda, qaysi vaqt oralig'ida, qanday sharoitlarda va qanday shaxslar tomonidan sodir etilayotgani alohida tahlil qilinishi lozim. Bunday tahlil natijasida jinoyat sodir etilishiga imkon beruvchi hududiy omillarni, masalan, yoritilmagan ko'chalar, nazoratsiz hududlar, savdo obyektlari, avtoturargohlar, xonadonlar va boshqa obyektlardagi xavfsizlik kamchiliklarini aniqlash mumkin.

Jinoyatchilikning hududiy xususiyatlarini o'rganishda jinoyat sodir etgan shaxslarning ijtimoiy-demografik xususiyatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Rasmiy statistikaga ko‘ra, Qoraqalpog‘iston Respublikasida jinoyat sodir etganligi aniqlangan shaxslar soni 2021-yilda 2 519 tani, 2022-yilda 2 785 tani, 2023-yilda 3264 tani, 2024-yilda 2 007 tani va 2025-yilda 1 832 tani tashkil etgan[6]. Bu ko‘rsatkichlar jinoyatlar soni bilan jinoyat sodir etgan shaxslar soni o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bir xil dinamika mavjud emasligini ko‘rsatadi. Shu sababli jinoyatchilik profilaktikasida faqat jinoyatlar statistikasini emas, balki jinoyat sodir etgan shaxslarning xususiyatlarini ham kompleks o‘rganish zarur.

Mahalla hududida jinoyatchilikning hududiy xususiyatlarini tadqiq etishda “kriminogen omil” tushunchasiga alohida e’tibor qaratish lozim. Kriminogen omillar deganda jinoyatchilikning shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy-ruhiy, tashkiliy, hududiy va boshqa shart-sharoitlar tushuniladi. Mahalla kesimida bunday omillarni aniqlash profilaktikaning eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib, chunki jinoyatlarning oldini olish samaradorligi ko‘p jihatdan uni keltirib chiqarayotgan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish darajasiga bog‘liq.

Kriminogen omillarni shartli ravishda bir nechta guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruhga ijtimoiy-iqtisodiy omillar - ishsizlik, kam ta’minlanganlik, doimiy daromad manbaining mavjud emasligi, mehnat bozoridagi muammolar va ijtimoiy himoyaga ehtiyojning yuqoriligi kiradi.

Ikkinchi guruhni oilaviy-maishiy omillar - oilaviy nizolar, notinch oilalar, bolalar tarbiyasidagi muammolar, ota-ona nazoratining yetarli emasligi tashkil etadi.

Uchinchi guruhga shaxsiy va ijtimoiy-psixologik omillar - huquqiy madaniyatning pastligi, jinoiy muhit ta’siri, alkogolizm va boshqa salbiy odatlar kiradi.

To‘rtinchi guruhni hududiy-infratuzilmaviy omillar - yoritilmagan ko‘chalar, tashlandiq yoki nazoratsiz obyektlar, xavfsizlik vositalari bilan ta’minlanmagan hududlar tashkil etadi.

Bunday tasnif profilaktika choralarini kriminogen omilga mos ravishda belgilash imkonini beradi. Masalan, ishsizlik asosiy omil bo‘lgan mahallada bandlik va kasbga o‘qitish choralari ustuvor bo‘lishi lozim. Yoshlar o‘rtasidagi nazoratsizlik asosiy muammo bo‘lgan mahallada ta’lim, sport, madaniy tadbirlar va ota-onalar bilan ishlash choralari kuchaytirilishi zarur. Ko‘cha va jamoat joylarida sodir etiladigan jinoyatlar ustun bo‘lgan hududlarda esa videokuzatuv, yoritish, patrullik va hududiy nazorat mexanizmlarini takomillashtirish maqsadga muvofiq.

Demak, jinoyatchilik profilaktikasida “bir mahalla - bir xil profilaktika” yondashuvidan voz kechib, **“muayyan mahalla - muayyan kriminogen omil - muayyan profilaktik chora”** prinsipini shakllantirish ilmiy va amaliy jihatdan maqsadga muvofiqdir.

Mahallada profilaktika subyektlarining hamkorligi mazkur jarayonning muhim

tashkiliy elementi hisoblanadi. Amalda mahalla raisi, profilaktika inspektori, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, ijtimoiy xodim va soliq inspektori kabi subyektlar mahalla hayotining turli yo‘nalishlarida faoliyat yuritadi. 2025-yil 1-dekabrdagi Vazirlar Mahkamasining 754-son qaroriga 2-ilova bilan tasdiqlangan Nizomda “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyili asosida ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirishda mazkur subyektlar va boshqa davlat organlari o‘rtasida o‘zaro hamkorlik mexanizmlari belgilangan[9].

Biroq profilaktika subyektlarining mavjudligi o‘z-o‘zidan samarali profilaktika tizimini ta’minlamaydi. Ularning faoliyati o‘zaro muvofiqlashtirilgan, ma’lumotlar bilan ta’minlangan va aniq natijaga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Shu nuqtai nazardan, mahallada har bir kriminogen muammo bo‘yicha “muammo — mas’ul subyekt — profilaktik chora — amalga oshirish muddati — natija” tizimini joriy etish maqsadga muvofiq.

Bunday mexanizmda profilaktika inspektori faqat jinoyat sodir etilganidan keyin chora ko‘ruvchi subyekt sifatida emas, balki mahalladagi kriminogen vaziyatni tahlil qiluvchi, xavfli hudud va obyektlarni aniqlovchi, profilaktika subyektlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi va profilaktik choralarning natijadorligini baholovchi asosiy tashkiliy subyekt sifatida namoyon bo‘lishi lozim.

Mahalla hududida jinoyatlarning oldini olishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. 2025-yilga oid normativ hujjatlarda “mahalla yettiligi” faoliyatini to‘liq raqamlashtirish, platformalarni birlashtirish orqali yagona boshqaruv va nazorat mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish, ijtimoiy profilaktika obyektlarini barvaqt aniqlash va ular bilan tizimli ishlash vazifalari belgilangan[3]. Bu esa kelgusida mahallada jinoyatchilik profilaktikasini ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv modeliga o‘tkazish uchun huquqiy va tashkiliy zamin yaratadi.

Raqamli profilaktika mexanizmida jinoyatlar, huquqbuzarliklar, kriminogen omillar, profilaktika hisobidagi shaxslar, xavfli obyektlar, profilaktik tadbirlar va ularning natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yagona axborot muhitida integratsiyalash mumkin. Bunda asosiy maqsad ma’lumotlarni ko‘paytirish emas, balki ular asosida profilaktik qaror qabul qilish samaradorligini oshirishdan iborat bo‘lishi lozim.

Mahallalarning kriminogen xavf darajasini baholash ham jinoyatchilikning hududiy xususiyatlarini o‘rganishning muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Hududlarni jinoyatlar soniga qarabgina tasniflash yetarli emas. Bunda aholi soni, jinoyatlarning dinamikasi, jinoyat turlari, takroriy jinoyatlar, xavf guruhlari, kriminogen nuqtalar, ijtimoiy profilaktika obyektlari va profilaktika natijalarini kompleks hisobga olish zarur.

Shu asosda mahallalarni shartli ravishda past, o‘rta va yuqori kriminogen xavfli

hududlarga ajratish mumkin. Past xavfli mahallalarda asosiy e'tibor umumiy profilaktika va xavfning barqaror saqlanishini ta'minlashga qaratilsa, o'rta xavfli mahallalarda muayyan kriminogen omillarga nisbatan manzilli profilaktika choralari kuchaytiriladi. Yuqori xavfli mahallalarda esa profilaktika subyektlarining kengaytirilgan hamkorligi, kriminogen nuqtalarni bartaraf etish, xavf guruhlari bilan individual ishlash va hududiy nazorat choralarini kuchaytirish talab etiladi.

Shu tariqa profilaktika resurslarini hududlarning real kriminogen ehtiyojidan kelib chiqib taqsimlash imkoniyati paydo bo'ladi. Bu esa profilaktika tizimining samaradorligini oshirish bilan birga, inson, moliyaviy va tashkiliy resurslardan oqilona foydalanishga xizmat qiladi.

Mavzuning yana bir muhim jihati profilaktika natijadorligini baholash mezonlarini takomillashtirish bilan bog'liq. Amaliyotda profilaktika ishlarining samaradorligi ko'p hollarda o'tkazilgan profilaktik tadbirlar soni, profilaktik suhbatlar, yig'ilishlar yoki reydlar miqdori bilan baholanishi mumkin. Biroq mazkur ko'rsatkichlar profilaktikaning haqiqiy natijasini to'liq aks ettirmaydi.

Ilmiy nuqtai nazardan profilaktika natijadorligi jinoyatchilik dinamikasi bilan bir qatorda kriminogen omillarning bartaraf etilganligi, xavf guruhlarida ijobiy o'zgarishlar yuzaga kelganligi, takroriy jinoyatlarning kamayishi, kriminogen nuqtalar sonining qisqarishi, jamoat joylarining xavfsizligi oshishi va profilaktika subyektlari o'rtasidagi hamkorlik natijadorligi orqali baholanishi lozim.

Shu nuqtai nazardan profilaktika faoliyatini **"qancha tadbir o'tkazildi?"** degan mezondan **"qaysi kriminogen omil bartaraf etildi va buning natijasida kriminogen xavf qanchalik kamaydi?"** degan natijaviy mezonga o'tkazish maqsadga muvofiq.

Mahalla hududida jinoyatchilikning hududiy xususiyatlarini o'rganishning ilmiy ahamiyati ham aynan shunda namoyon bo'ladiki, hududiy kriminogen vaziyatni aniqlash profilaktika mexanizmlarini differensiatsiya qilish uchun empirik asos yaratadi. Ya'ni tadqiqot natijasida faqat "Qoraqalpog'istonda jinoyatchilik darajasi qanday?' degan savolga emas, balki "qaysi mahallalarda qaysi jinoyatlar ko'proq sodir bo'lmoqda?", "ularga qaysi omillar ta'sir qilmoqda?", "qaysi profilaktika subyekti ushbu omilni bartaraf etishi mumkin?" va "qo'llanilgan chora qanchalik samarali bo'ldi?" kabi savollarga ham javob olish imkoni paydo bo'ladi.

Mazkur masala huquqbuzarliklar profilaktikasining zamonaviy paradigmasi bilan ham uyg'unlashadi. Chunki profilaktika tizimining maqsadi faqat huquqbuzarlik sodir etgan shaxsga ta'sir ko'rsatish emas, balki jinoyatchilikni keltirib chiqaruvchi muhitni o'zgartirish, xavf omillarini kamaytirish va jamoat xavfsizligini ta'minlashdan iborat. Shu ma'noda mahalla profilaktikasi **shaxsga yo'naltirilgan**, **oilaga yo'naltirilgan**, **obyektga yo'naltirilgan** va **hududga yo'naltirilgan** profilaktika choralarining o'zaro bog'liq tizimi sifatida qaralishi lozim.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi yana shu bilan belgilanadiki, Qoraqalpog‘iston Respublikasida jinoyatchilik dinamikasi bilan bir qatorda uning ichki tarkibi va jinoyat sodir etuvchi shaxslarning xususiyatlari ham o‘zgarib bormoqda. Masalan, 2021-2025 yillarda 16-17 yoshdagi jinoyat sodir etganligi aniqlangan shaxslar soni 46 nafardan 88 nafarga oshgan bo‘lsa, 25-30 yoshdagi shaxslar soni 458 nafardan 602 nafarga o‘zgargan.[7; 8] Bu esa profilaktika choralarini yosh, ijtimoiy holat va hududiy muhitga qarab differensiatsiya qilish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Shu bilan birga, jinoyatchilikning hududiy xususiyatlarini o‘rganishda faqat statistik ma’lumotlar emas, balki kriminologik kuzatuv, profilaktika inspektorlari va mahalla subyektlari bilan ekspert so‘rovlari, jinoyat sodir etilgan joylarni o‘rganish, jinoyatlar xaritasini shakllantirish, jinoyatlarning vaqt va joy bo‘yicha konsentratsiyasini tahlil qilish kabi empirik usullardan ham foydalanish maqsadga muvofiq.

Bunday kompleks yondashuv Qoraqalpog‘iston Respublikasi mahallalarida jinoyatchilikning real hududiy manzarasini shakllantirish, kriminogen omillarning o‘zaro ta’sirini aniqlash va profilaktika mexanizmlarining qaysi elementlari eng samarali ekanini baholash imkonini beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mazkur tadqiqotda jinoyatchilikning hududiy xususiyatlarini o‘rganishni uch bosqichda amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

birinchi bosqichdan – Qoraqalpog‘iston Respublikasi mahallalarida 2021-2025-yillardagi jinoyatchilik dinamikasi, tarkibi va hududiy taqsimoti tahlil qilinadi;

ikkinchi bosqichda — jinoyatchilikning hududiy konsentratsiyasiga ta’sir qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy, oilaviy-maishiy, demografik, shaxsiy va infratuzilmaviy kriminogen omillar aniqlanadi;

uchinchi bosqichda - aniqlangan kriminogen omillar va xavf darajasidan kelib chiqib, mahalla darajasida manzilli profilaktika mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

Maqolaning asosiy maqsadi Qoraqalpog‘iston Respublikasi mahallalarida jinoyatchilikning hududiy xususiyatlarini kriminologik jihatdan tahlil qilish hamda aniqlangan hududiy va kriminogen xususiyatlardan kelib chiqib, jinoyatlar profilaktikasining samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Shu asosda mahalla hududida jinoyatchilik profilaktikasining takomillashtirilgan modeli sifatida quyidagi mantiqiy zanjirni taklif etish mumkin:

kriminologik diagnostika — hududiy xavfni baholash — kriminogen omillarni aniqlash — profilaktika obyektini belgilash — mas’ul subyektni biriktirish — manzilli profilaktika chorasini qo‘llash — natijadorlikni baholash — qayta kriminologik diagnostika.

Mazkur model profilaktik faoliyatni bir martalik tadbirlar yig‘indisidan uzluksiz boshqaruv sikliga aylantirish imkonini beradi.

Shuningdek, mahalladagi jinoyatchilik profilaktikasini takomillashtirishda “mahalla yettiligi”ning imkoniyatlaridan samarali foydalanish, ular o‘rtasida ma’lumot almashinuvini kuchaytirish va har bir kriminogen muammo bo‘yicha aniq mas’ul subyektni belgilash muhimdir. “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyili asosida ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirish tartibida ham mahalla raisi, hokim yordamchisi, profilaktika inspektori, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, ijtimoiy xodim va soliq inspektori o‘rtasida hamkorlik mexanizmlari nazarda tutilgan.[9]

Bundan tashqari, 2025-yildagi normativ yondashuvlarda mahallalardagi jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning asl omillarini ilmiy asosda o‘rganish va olingan natijalarni amaliyotga joriy etishga alohida urg‘u berilgan.[3] Bu holat mazkur tadqiqotning amaliy ahamiyatini ham belgilaydi. Chunki tadqiqot natijalari Qoraqalpog‘iston Respublikasi mahallalarida kriminogen vaziyatni baholash, resurslarni manzilli taqsimlash va profilaktika subyektlarining faoliyatini natija asosida baholashda foydalanilishi mumkin.

Xulosa

Shunday qilib, Qoraqalpog‘iston Respublikasi mahallalarida jinoyatchilikning hududiy xususiyatlarini tadqiq etish jinoyatchilik statistikasini oddiy tavsiflashdan iborat emas, balki jinoyatlarning hududiy konsentratsiyasi, kriminogen omillar, xavf guruhlari, profilaktika subyektlari va hududiy muhit o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlashga qaratilgan kompleks kriminologik tadqiqotdir.

Mazkur yondashuv asosida jinoyatchilik profilaktikasini “umumiy” choralardan “manzilli” choralarga, “reaktiv” profilaktikadan “proaktiv” profilaktikaga va “tadbirlar soni”ga asoslangan baholashdan “erishilgan natija”ga asoslangan baholash tizimiga bosqichma-bosqich o‘tkazish mumkin.

Shu sababli Qoraqalpog‘iston Respublikasi mahallalarida jinoyatchilikning hududiy xususiyatlarini aniqlash va ulardan kelib chiqib profilaktika mexanizmlarini takomillashtirish nafaqat amaliy ehtiyoj, balki huquqbuzarliklar profilaktikasi nazariyasi va amaliyoti uchun muhim ilmiy vazifa hisoblanadi. Mazkur tadqiqotda olingan natijalar mahalla darajasida kriminogen vaziyatni baholash, profilaktika subyektlarining faoliyatini muvofiqlashtirish, kriminogen omillarni barvaqt bartaraf etish va jamoat xavfsizligini ta’minlashning samarali mexanizmlarini shakllantirishga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonuni. https://www.lex.uz/ru/docs/-2387357.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi “2025-yilda respublika

mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-1-son qarori. https://lex.uz/uz/docs/-7330260.

3. Ўзбекистон Республикаси қонунчилик ҳужжатлари тўплами, 2025 йил, 34-сон (1210). Маҳаллаларда жиноятчилик ва ҳуқуқбузарликларнинг асл омилларини илмий ўрганиш, ижтимоий профилактика объектларини барвақт аниқлаш, “маҳалла еттилиги” фаолиятини рақамлаштириш ва илмий тавсияларни амалиётга жорий этишга оид нормалар. https://lex.uz/law_collection/2025.

4. Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси. **«Рўйхатга олинган жиноятлар сони (ҳудудлар бўйича)»**, SIAT очиқ маълумотлар базаси, 2.04.09.0001-код. Маълумотлар 2026 йил 22 апрелда янгиланган. https://siat.stat.uz/data/800.

5. Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси. **«Рўйхатга олинган ўғрилик жиноятлари сони (жами)»**, SIAT очиқ маълумотлар базаси, 2.04.09.0021-код. Маълумотлар 2026 йил 22 апрелда янгиланган. https://siat.stat.uz/data/800.

6. Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси. **«Жиноят содир этганлиги аниқланган шахслар сони (жами)»**, SIAT очиқ маълумотлар базаси, 2.04.09.0002-код. Маълумотлар 2026 йил 22 апрелда янгиланган. https://siat.stat.uz/data/1072.

7. Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси. **«Жиноят содир этганлиги аниқланган 16–17 ёшдаги шахслар сони»**, SIAT очиқ маълумотлар базаси, 2.04.09.0015-код. https://siat.stat.uz/data/1040.

8. Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси. **«Жиноят содир этганлиги аниқланган 25–30 ёшдаги шахслар сони»**, SIAT очиқ маълумотлар базаси, 2.04.09.0017-код. https://siat.stat.uz/data/1056.

9. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2025 йил 1 декабрдаги 754-сон қарорига 2-илова. **«Обод ва хавфсиз маҳалла» тамойили асосида маҳаллаларда ижтимоий профилактика тадбирларини амалга ошириш тартиби тўғрисидаги Низом**. https://lex.uz/uz/docs/7872510.

MUNDARIJA

Kirish so‘zi 3

1. **Berdialiyev Baxtiyor Erkinovich** — “Talaba-yoshlar o‘rtasida ijtimoiy profilaktika tizimini tashkil etishning kriminologik asoslari”..... 5
2. **Nigmatov Ruftullo Olimdjanovich** — “Криминологическая политика республики узбекистан: критерии сформированности и стратегические приоритеты”.....12
3. **Ziyodullayev Muzaffar Ziyodullayevich** — «Huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish istiqbollari»..... 21
4. **Kuldashev Nuriddin Abduganiyevich** — “Huquqbuzarliklar profilaktikasida fuqarolik huquqining o‘rni: Yangi O‘zbekiston tajribasi va ustuvor vazifalar” 30
5. **Isamiddin Ismailov, Mamadaliyev Azizbek Mansurovich** — “Mustaqillikka 35 yil: ichki ishlar organlari xalqchil professional milliy tizimga aylanmoqda”..... 35
6. **Xujakulov Siyovush Baxtiyorovich** — “Huquqbuzarliklarning sabab va shart-sharoitlarini aniqlash hamda bartaraf etish: nazariyadan zamonaviy profilaktika amaliyotigacha”..... 44
7. **Ollamov Yarash Yo‘ldoshovich** — «Ichki ishlar organlari va ularning xodimlarining imijini yuksaltirish strategik vazifa»..... 49
8. **To‘rayev Ilxomjon Esanovich** — “Yangi O‘zbekistonda ichki ishlar organlarini isloh qilish va huquqbuzarliklar profilaktikasini takomillashtirish: natijalar va ustuvor vazifalar”..... 58
9. **Nurumbetova Sadoqat Allayarovna** — “Ichki ishlar organlarida jinoyatchilik xavfini prognozlash va barvaqt profilaktika qilish (2016–2026-yillardagi islohotlar va ilmiy tadqiqotlarning amaliy ahamiyati)”..... 65
10. **Kaxarova Munira Mahammadjanovna** — “Ayollar jinoyatchiligini barvaqt oldini olishning kriminologik jihatlari”..... 71
11. **Omonov Zafarjon Rahmonaliyevich** — «Ehtiyot chorasini bekor qilish va o‘zgartirish institutining protsessual-huquqiy reglamentatsiyasi: tergov sudyasi vakolatlari va qiyosiy-huquqiy tahlil»..... 78
12. **Ro‘zmetov Otabek Oybekovich** — “Yangi O‘zbekistonda huquqbuzarliklar profilaktikasi: o‘n yillik islohotlar natijalari va rivojlanish istiqbollari”..... 85
13. **Xidirov Furqat Shukurullayevich** — “Profilaktika inspektorlarining kasbiy tayyorgarligini amaliyot ehtiyojlariga moslashtirish tartibi”.....92
14. **Sharipov Sanjar Sobirovich** — “Yangi O‘zbekistonda ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash faoliyatini boshqarish: islohotlar natijalari va ustuvor yo‘nalishlar”.....96
15. **Saitqulov Qodirali Abdisalimovich** — “Huquqbuzarliklar profilaktikasida ijtimoiy profilaktikaning o‘rni: Yangi O‘zbekiston tajribasi va rivojlanish istiqbollari”..... 102
16. **Ummatov Muhammadrasul Tursunovich** — Jamoat xavfsizligini ta’minlash subyektlarining o‘zaro hamkorligini tashkil etish 107
17. **Maxmudov Dilmurod Rozmetovich, Maxmudov Shamsiddin Rozmetovich** — “Ichki ishlar organlarida jamoatchilik bilan hamkorlik — xavfsizlikni yangi tayanchi”..... 112
18. **Abjalov Abdijabbor Maxammadiyevich** — “Jinoyatchilikka qarshi kurash tizimida viktimologik profilaktikaning o‘rni va ahamiyati”..... 123

19. **Ro‘ziyeva Gulsanam Sultonmurodovna** — “Innovatsion sharoitda kasbiy rivojlanishning ma’naviy-intellektual mexanizmlari”…….……..……. 131
20. **Turg‘unov Ilhom, Yuldashev Muhammadkarim** — “Jabrlanuvchilarning huquqlarini ta’minlash tizimining rivojlanishi: xalqaro standartlar va milliy mexanizm”…….. 138
21. **Xudoyberdiyev Baxtiyor Umedovich, Nig‘matov Usmonjon Umid o‘g‘li** – Huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish: o‘n yillik islohotlar, yangi mexanizmlar va ustuvor vazifalar……..……...… 144
22. **Abdugapparov Alisher Azatbekovich, Kutlimuratov Maxmudjon Sharipbayevich** – “Xavfsiz mahalla” – xavfsiz jamiyat: ichki ishlar organlari faoliyati quyi bo‘g‘inidagi islohotlar……..……..…… 149
23. **Xudayberganova Dilorom Zafarovna** — “Oilaviy bolalar uylari uchun uy-joy bilan ta’minlashning zamonaviy modeli”……...……161
24. **Adxamov Zafar Akbarovich** — “Yangi O‘zbekistonda ichki ishlar organlarini isloh qilish sharoitida kadrlar tayyorlash va huquqbuzarliklar profilaktikasini takomillashtirish: natijalar va ustuvor vazifalar”……...… 167
25. **Aripov Botir Baxtiyarovich** — “O‘zbekiston hududi orqali xalqaro avtomobil tranzitida huquqbuzarliklarning oldini olishda raqamli logistikaning roli”……..…. 177
26. **Saidova Sitora Alisherovna** — “Talabalar o‘rtasida giyohvandlik va psixotrop moddalarning g‘ayriqonuniy muomalasi bilan bog‘liq huquqbuzarliklar profilaktikasini takomillashtirish yo‘llari”……..…….. 181
27. **Abdusalomova Xurshidabonu Nasirdinovna** — “Huquqbuzarliklar profilaktikasidan viktimologik profilaktikaga: ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlarni himoya qilish tizimidagi o‘n yillik transformatsiyasi”…… 185
28. **Ibragimov Sherzod Shakirovich** — “Yirik shaharlarda jamoat tartibini saqlashning zamonaviy mexanizmlari: muammolar va takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari”. 191
29. **Kutlimuratov Maxmudjon Sharipbayevich** — “Qoraqalpog‘iston Respublikasi mahallalarida jinoyatchilikning hududiy xususiyatlari va ularning profilaktikasini takomillashtirish”……..……... 195
30. **Baratova Dilnoza Odiljon qizi** — “Yangi O‘zbekistonda huquqbuzarliklar profilaktikasi va ichki ishlar tizimini takomillashtirishning kriminologik jihatlari”……..… 205
31. **Egamberdiyeva Nodira Melibayevna, Saydivaliyeva Xurshida Xodjiakbarovna** — “Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik sodir etgan shaxslar bilan ishlashning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish”…… 213
32. **Saydivaliyeva Xurshida Xodjiakbarovna** — “Oilaviy(maishiy) zo‘ravonlikni omillari va uning oldini olish: o‘n yillik tajriba, ilmiy tahlil va zamonaviy yondashuvlar”…..… 222
33. **Xamidov Asilbek Alisher o‘g‘li** — “Axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etiladigan firibgarlik jinoyatlarining tushunchasi, huquqiy tabiati va kriminologik xususiyatlari”……..……..… 230
34. **Shavkatov Shaxboz Shavkatovich** — “Probatsiya nazoratidagi voyaga yetmagan huquqbuzarlarning kriminologik portreti: toshkent shahri misolida sotsiologik so‘rov natijalari”……..…… 240
35. **Allayarova Maftuna Almardonovna** — “Firma nomlari to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik masalalari xalqaro shartnomalarda va xorij tajribasida” ... 248
36. **Sultanov Davron Ibroximovich** — “Mahallada xavfsiz muhitni yaratishning manzilli mexanizmlari: Toyloq tumani “Sochak” mahallasi misolida ilmiy-kriminologik tahlil” . 252

37. **Xudoyshukurov Farxod Tursoatovich** — “Ichki ishlar organlari maxsus qabulxonalari faoliyatini boshqarishni takomillashtirish: inson huquqlarini ta’minlash va zamonaviy boshqaruv mexanizmlari”..... 258
38. **Atanazarov Xurshid Nadjimovich** — “Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik jinoyatlarining oldini olishda xorijiy tajriba: qiyosiy tahlil va milliy tizimga joriy etish imkoniyatlari” 264
39. **Iskandarov Doniyor Taxirovich** — “Profilaktika inspektorining huquqbuzarliklarning oldini olish faoliyatini baholash evolyutsiyasi (zardushtiylik davridan sovet davrining yakunigacha)”..... 277
40. **Atajanov O‘tkir Mamatsalayevich** — “Yangi O‘zbekistonda ichki ishlar organlari huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimiga kadrlar tayyorlashdagi islohotlar va istiqbollar” 282
41. **Ubaydullayeva Dilnoza Akmalovna, Risqiboyeva Sevinch Rustam qizi** — “Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligiga ta’sir etuvchi omillar, jinoyatchilik sabablari va oldini olish mexanizmlarini so‘rovnoma natijalari asosida tahlil qilish”..... 289
42. **To‘xtashev Hikmatilla Ismatillayevich** — “Tabiiy resurslardan foydalanishga ruxsat berish va litsenziyalash sohasidagi ekologik huquqbuzarliklar profilaktikasi: ichki ishlar organlarining idoralararo hamkorligini takomillashtirish”..... 296
43. **Alijonov Ibroximjon Rustamjonovich, Rixsimov Komron Abrorovich** — “Xorijiy davlatlarda jazoni ijro etishning zamonaviy modellari: qiyosiy-huquqiy tahlil”..... 303
44. **Xayitov Farrux Shermatovich** — “Qizil toifaga kiritilgan hududlarda jinoyatlarni oldini olishning kriminologik asoslari”..... 309
45. **Salimov Sherzod Xusanovich** — “Mahallada jamoat xavfsizligini ta’minlashda profilaktikaning vazifalari”..... 316
46. **Yo‘ldoshev Fozilbek Sharifboy o‘g‘li, Risqiboyeva Sevinch Rustam qizi** — “Oilaviy-maishiy zo‘ravonliklarga nisbatan jamoatchilik munosabati: sotsiologik tahlil”..... 322
47. **Saydaliyev Uchqun Xayriddinovich** — “Mahallalarda xavfsiz muhitni shakllantirishda yaxlit manzilli boshqaruv tizimining o‘rni: toshkent shahri yakkasaroy tumani tajribasi”..... 333
48. **Axmedova Muxabbat Abdujalalovna** — “Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik uchun jinoiy javobgarlikni differensiatsiya qilish va yarashuv institutini qo‘llash chegaralari”..... 347
49. **Allayorov Djura Xaykalovich** — “Ichki ishlar organlari xodimlarining axloqiy fazilatlari”..... 356
50. **Risqiboyeva Sevinch Rustam qizi, Mamarajabova Dildora Baxtiyor qizi** — “Voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilgan jinsiy jinoyatlarning kriminologik omillarini sotsiologik tadqiq qilish”..... 361

YANGI O‘ZBEKISTONDA ICHKI ISHLAR ORGANLARINI ISLOH QILISH VA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINI TAKOMILLASHTIRISH: NATIJALAR VA USTUVOR VAZIFALAR

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari
(2026-yil 28-avgust)

Mas’ul muharrir:
O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti
boshlig‘i, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
polkovnik B.E. Berdialiyev

Mazkur to‘plam barcha olimlar va tadqiqotchilarga yetib borilishini ta’minlash maqsadida elektron shaklda chop etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti,
100187, Toshkent sh., Buyuk ipak yo‘li ko‘chasi, 243.